GEOGRAFIYA DARSALARIDA INTERFAOL METODLARINI TADBIQ ETISH VA ULARNI TA‘LIM JARAYONIDA QO‘LLASH

Ahmadqulov Saidjon Rauf o‘g‘li – Guliston davlat universiteti “Ekologiya va geografiya” kafedrasi o‘qituvchisi,
e-mail: saidjonahmadqulov5@gmail.com
Umirzaqov Oybek Alimqul o‘g‘li - Guliston davlat universiteti “Ekologiya va geografiya” kafedrasi o‘qituvchisi, tayanch doktoranti,
e-mail: oybekumirzaqov0@gmail.com

Hozirgi kunga kelib qator rivojlangan mamlakatlarda o‘quv va ijodiy faollikni oshiruvchi hamda ta‘lim – tarbiya jarayonining samaradorigini kafolatlovchi ta‘lim texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba to‘plangan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. 80 dan ortiq interfaol metodlar, ularning mohiyati va qo‘llanilishi to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Zamonaviy sharoitda ta‘lim samaradorligini oshirishning engmaqbul yo‘li – bu mashg‘ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda.

Interaktiv metodlar asosida tuzilgan dars tizimlarida turli strategiyalardan foydalaniladi. Bunda talabalarga kitoblar, daftar, boshqa usullardan foydalanish taqiqlanmaydi, aksincha bunday usullarni qo‘llash rag‘batlantiriladi.

Interfaol metodlarning klassifikatsiyasi

- yangi bilim egallashga yo‘naltirilgan metodlar,
- olgan bilimlarni amalda tadbiq etishga qaratilgan metodlar,
- mustahamlash, to‘ldirish va nazorat o‘rnatuvchi metodlar,
- bilim, ko‘nikma va malakalarni tekshirish va baholash metodlari,
- ijodiy izlanish va tadqiqotchilik metodlari

Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub‘yektlarning suhbat (dialog), o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatning olib borishlarini ifodalaydi. “Bizning maqsadimiz o‘quvchini toliqtirib qo‘ymaslikdir. Hadeb, bir narsani o‘qib berish zerikarli bo‘ladi va toqatini toq qiladi. Agar o‘quvchi bir masaladan boshqa bir masalaga o‘tib tursa, u xuddi turli tuman bog‘-rog‘larda sayr qilgandek bo‘ladi”. Har bir yangi narsa kishiga rohat bag‘ishlaydi” deb ta‘kidlaganlar ilm ma‘rifatchisi Beruniy.


Hozirgi yangi kiritilgan zamonaviy ta‘limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak

natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish asosida ma‘lum faoliyat ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta‘lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga doir katta tajriba to‘plangan bo‘lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda [Ishmuhammedov R., 5].

Bu kabi metodlar o‘z mohiyatiga ko‘ra Geografiya fani bo‘yicha ta‘lim oluvchilarda o‘quv-bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoada ishlash, o‘rganilayotgan mavzu, muammolar bo‘yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalash, o‘z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g‘oyalarni yanada boyitish, bildirilgan mavjud mulohazalar orasidan engmaqbul yechimni tanlab olishga rag‘batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi Ta‘lim va tarbiya jarayonida o‘qituvchi (pedagog)lar tomonidan interfaol metodlarning o‘rinli, maqsadli, samarali qo‘llanilishi ta‘lim oluvchi (o‘quvchi, talabalar)da muloqotga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g‘oyalarni sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog‘liqlikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun kengimkoniyat yaratadi.

Ta‘lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an‘anaviy ta‘lim ham suhbat (dialog)ga asoslangan va bu suhbat quyidagi o‘zaro munosabat shakllarida tashkil etiladi:



An‘anaviy ta‘limda ham tabiiy ravishda suhbat asosini axborot tashkil etadi Ammo axborot uzatishning asosiy manbai o‘qituvchining tajribasi bo‘lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya‘ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarni og‘zaki tarzida o‘quvchi (talaba)larga yetkazib berishga intiladi. Faollik ko‘rsatish o‘qituvchigagina xos bo‘lib, o‘quvchi (talaba)lar bu vaziyatda sust tinglovchi bo‘lib qoladi. Ularning asosiy vazifasi o‘qituvchini tinglash, zarur o‘rinlarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, kam holatlarda ruxsat etilganidagina so‘zlashdan iboratdir.

An‘anaviy ta‘limdagi bir tomonlamalik oliy ta‘lim tizimidagi faqat ma‘ruza mashg‘ulotlarida emas, seminar darslarida ham ustuvorlik qiladi. Unga ko‘ra,

"yetkazib beruvchi" rolida endi o'qituvchi emas, balki o'quvchi (talaba) namoyon bo'ladi. O'quvchi (talaba), asosan, o'zi o'zlashtirgan bilimlarni namoyish etadi, o'qituvchi esa uning fikrlarini tinglaydi, zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladi. O'quvchi (talaba)lar guruhi (jamoasi) bu vaziyatda butunlay sust ishtirokchi, tinglovchi bo'lib qoladi. Bir qarashda o'quvchi (talaba) yoki o'qituvchi tomonidan uzatilayotgan axborotlarning qabul qilinishi talabalar guruhi (jamoasi) uchun bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratayotgandek taassurot uyg'otadi. Biroq, psixologik tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, shu tarzda qabul qilingan bilim (ma'lumot)lar juda tez unutiladi. Xususan, amerikalik psixolog olimlar R.Karnikau va F.Makelrouning o'rganishlariga ko'ra shaxsning tabiiy fiziologik-psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o'zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi.

Shunga ko'ra interfaol o'qitish "ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – o'qituvchi, o'quvchi va o'quvchilar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahs-munozaralar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda echimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda o'quvchilarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, "o'qituvchi – o'quvchi – o'quvchilar guruhi"ning o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo'lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi".


"KEYS-STADI" (YOKI "O'QUV KEYSLARI") METODI

"Keys-stadi" (ingliz tilida "case" – metod, "study" – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) texnologiyasi o'quvchi (talaba)larda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U o'quvchi (talaba)larni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o'rganish va tahlil qilishga o'rgatadi. Bu metoddan yuqori sinflarda, xususan, iqtisodiy va ijtimoiy Geografiya darslarida foydalanish mumkin.

Texnologiyaning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi. Bular quyidagilardir: ta'lim shakllari, ta'lim metodlari, ta'lim vositalari, ta'lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to'plash, ularni o'rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning

usul va vositalari, o‘qituvchi va o‘quvchi (talaba) o‘rtasidagi ta‘limiy aloqaning usul va vositalari, o‘quv natijalari.

Keys-stadi texnologiyasining umumiy tuzilmasi quyidagicha:



“Nurash natijasida cho‘kindi tog‘ jinslarining hosil bo‘lishi”mavzusi bo‘yicha “Keys-Stadi” metodi

Fizik nurash jarayonini kuzatish metodi orqali qanday amalga oshirishimiz mumkin?

Yer yuzidagi ko‘pchilik tog‘lar granitdan tashkil topgan bo‘ladi. O‘qituvchi granit garchi juda qattiq va pishiq tosh bo‘lsada, asta-sekin yemirilib borishi haqida gapiradi. O‘qituvchi gapini tasdiqlash uchun tajriba o‘tkazadi. Kichik bir granit parchasini qisqich bilan ushlab turib, spirt lampa alangasida qizdiradi. Qizigan granit parchasini sovuq suvli bankaga tushiradi. Bitta granit parchasining o‘zini bir necha marta shunday qilib ko‘radi. Nihoyat, talabalar granit parchasi chatnab, mayda-mayda bo‘laklarga bo‘linib, sinib tushishini ko‘radilar. O‘qituvchi granitdagi kvarts, dala shpati donalari va slyuda plastinkalari qizdirilib, sovitilganda har xil darajada kengayib-torayishini tushuntiradi. Buning natijasida granitda darz ketgan joylar, yoriqlar paydo bo‘ladi, keyin esa u yemiriladi.

1.Tabiiy holatda minerallarning chatnab, mayda-mayda bo‘laklarga bo‘linib, sinishi qanday ro‘y beradi? Bu jarayonni qanday izohlaysiz.


2. Shag‘al, qum va gillar qanday hosil bo‘ladi? Bu haqda sizning fikringiz.

“TEST TEXNOLOGIYASI”

“Test” (inglizcha “sinov”, “tekshirish”) texnologiyasi shaxsning psixologik, fiziologik va shaxsiy xususiyatlari, intellektual salohiyati, qobiliyati, ko‘nikma va malakalarini baholashga xizmat qiladi. Texnologiya o‘quvchi (talaba)lar tomonidan

muayyan mavzu mazmuni yoki fan asoslarining qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlashda samarali hisoblanadi.

Mashg'ulotlarda texnologiyadan foydalanish quyidagicha kechadi:



Geografiya ta'limida nostandart testlardan foydalanish o'quvchilar qiziqishini orttiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, 2003.-24-38b.

2. Avliyakulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. Toshkent, 2001.-18b.

3. Ahmadaliyev A., Qosimov A. Innovatsion faoliyat va ilg'or pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2006.- 60b

4. Ishmuhammedov R. Bolalarni tarbiyalash va sog'lomlashtirish ishlarida pedagogik texnologiya. Toshkent, UDAP. 2004.-28b

5. Ishmuhammedov R., Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. Toshkent, 2005.-52 b.

6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar – Toshkent, 2008.-34b